Umarova Nafisa Ahmatillovna	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilmjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korreksiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	

BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA BOLALARNING PEDAGOGIK, TIBBIY VA IJTIMOIY REABILITATSIYA KOMPLEKSIDA – LOGOPEDIK KORREKTSIYA

Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti

Logopediya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar serebral falaji (BSF)ning kelib chiqish sabablari, patogenezi, markaziy nerv tizimidagi erta organik zararlanishlar hamda ular natijasida yuzaga keladigan nutq va harakat buzilishlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada logopedik ishning mazmuni, tayyorlov bosqichi, artikulyatsion motorikani rivojlantirish, fonematik idrokni takomillashtirish hamda lug'atni boyitishga qaratilgan korreksion mashg'ulotlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: BSF, gemiparez, giperkinez, gemiplegiya, diplegiya, dispraksiya, dizartriya, psevdobulbar dizartriya, teskari yozuv, patogenezi, alaliya.

Abstract: The article examines, on a scientific basis, the causes, pathogenesis, early organic lesions of the central nervous system, as well as the resulting speech and motor disorders in children with cerebral palsy. The content of speech therapy intervention, the preparatory stage, and the step-by-step organization of corrective exercises aimed at developing articulatory motor skills, improving phonemic perception, and enriching vocabulary are analyzed.

Key words: cerebral palsy, hemiparesis, hyperkinesis, hemiplegia, diplegia, dyspraxia, dysarthria, pseudobulbar dysarthria, reverse writing, pathogenesis, alalia.

Аннотация: В статье на научной основе рассматриваются причины возникновения, патогенез, ранние органические поражения центральной нервной системы, а также обусловленные ими нарушения речи и движений у детей с детским церебральным параличом (ДЦП). Раскрываются содержание логопедической работы, подготовительный этап и поэтапная организация коррекционных упражнений, направленных на развитие артикуляционной моторики, совершенствование фонематического восприятия и обогащение словарного запаса.

Ключевые слова: ДЦП, гемипарез, гиперкинез, гемиплегия, диплегия, диспраксия, дизартрия, псевдобульбарная дизартрия, обратное письмо, патогенез, алалия.

KIRISH

Bolalar serebral falaji – bu bosh miyaning harakatlantiruvchi zonalari hamda bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarning zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv tizimi kasalligidir. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq tizimida erta organik buzilishlar kuzatiladi. Ushbu buzilishlarning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: infeksiyon kasalliklar, homiladorlik davrida yuzaga keladigan turli intoksikatsiyalar va jarohatlanishlar, surunkali kasalliklar, ona va homila qonining rezus omili hamda guruhi bo'yicha nomuvofiqligi. Bundan tashqari, homilaning erta yoki kech tug'ilishi hamda genetik omillar ham asosiy shartlardan hisoblanadi.

Bolalar serebral falaji ona homilasining faoliyatini buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherlik jarohatlari, shuningdek, tug'ruq paytida kindikning bo'yin atrofida o'ralib qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda bolaning markaziy nerv tizimiga kislorod yetishmasligi kuzatilib, bu holat bosh miya nerv hujayralarining zararlanishiga olib keladi.

Bolalar serebral falaji tug'ruqdan keyin kechadigan neyroinfeksiyalar va bosh miyaning og'ir jarohatlanishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Ushbu bolalarda barcha harakat funksiyalarining shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushlash, o'tirish va turish kabi funksiyalar qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi. Bolalar serebral falajida harakatning buzilishi asosiy nuqson hisoblanib, u o'ziga xos motor anoma-



liyalarning rivojlanishini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning asab-psixik funksiyalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar serebral falajida nutq buzilishlarini korrektsiyalash masalalari logopediya fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. I. A. Smirnova o'z tadqiqotlarida serebral falajga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, logopedik diagnostika va korrektsiya jarayonining tizimli yondashuvini asoslab bergan. M. Y. Ayupova logopediya sohasidagi fundamental ishlarida nutq buzilishlarini kompleks reabilitatsiya doirasida bartaraf etishda pedagogik va tibbiy hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlab, logopedik ishlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi. B. X. Xusniddinova esa inklyuziv ta'lim sharoitida resurs o'qituvchining o'rni va vazifalarini yoritib, serebral falajli bolalar bilan olib boriladigan logopedik korrektsiya jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy reabilitatsiyadagi rolini ilmiy asosda ochib beradi. Ushbu tadqiqotlar bolalar serebral falajida nutqni rivojlantirishda logopedik korrektsiyaning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bolalar serebral falajiga ega bolalarda logopedik korrektsiyaning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksidagi o'rni va samaradorligini aniqlash maqsadida empirik va nazariy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar logopedik kuzatuv, suhbat, hujjatlarni tahlil qilish hamda nutqiy rivojlanishni baholashga qaratilgan diagnostik topshiriqlar orqali olindi. Tadqiqot jarayonida bolalarning nutqiy faoliyati, artikulyatsion motorikasi, fonematik idroki va lug'at boyligidagi o'zgarishlar tizimli ravishda qayd etildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida o'rganilib, logopedik mashg'ulotlar oldi va keyingi natijalar solishtirildi. Shuningdek, pedagogik va tibbiy mutaxassislar xulosalari umumlashtirilib, logopedik korrektsiyaning kompleks reabilitatsiyadagi ahamiyati ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq buzilishlarining o'ziga xos tomonlari miyaning qay darajada zararlanganligiga qarab belgilanadi. Serebral falajga ega bolalarda ayrim miya sohalarining zararlanishi bilan bir qatorda bosh miya po'stloq qismlarining ikkilamchi rivojlanmaganligi yoki kech shakllanganligi ham namoyon bo'ladi. Ushbu bo'limlar ontogenetik jihatdan yosh hisoblanib, insonning psixik va nutq faoliyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar serebral falajida nutqning kech rivojlanishiga sabab faqatgina miyaning po'stloq bo'limlarining sekin shakllanishi emas, balki amaliy faoliyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda atrof-muhit haqidagi bilim va tasavvurlarning cheklanganligidir. Tarbiyaning noto'g'ri kechishi nutq rivojlanishining orqada qolishini yanada murakkablashtiradi. Ushbu bolalar hayotining ilk yillarida turli davolash muassasalarida bo'lishadi. Agar bu muassasalarda pedagogik ishga yetarlicha e'tibor berilmasa, bolaning nutqiy rivojlanishi kechikishi mumkin. Bundan tashqari, bolaning onasidan uzoqda bo'lishi, salbiy emotsional holatlar hamda yangi muhitga moslasha olmaslik nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uy sharoitida kattalar bolani haddan tashqari asrab, barcha majburiyatlarni o'z zimmalariga olishlari natijasida bolalarda faoliyat va nutqiy muloqotga bo'lgan ehtiyoj shakllanmay qoladi. Bolalar serebral falajida nutq buzilishlari patogeneza harakat patologiyasi muhim o'rin tutadi. Shu sababli ushbu bolalar bilan logopedik ishni tashkil etishda nutq va harakat buzilishlarining klinik hamda patogenetik umumiylikni tushunish muhim hisoblanadi.

Bolalar serebral falajida artikulyatsion motorikaning buzilishiga xos jihatlardan biri og'iz avtomatizmi bilan bog'liq tug'ma reflekslarning qayta rivojlanishida to'xtab qolishidir. Bular qatoriga so'rish, yutish, tishlash reflekslari va boshqalar kiradi. Ushbu reflekslarning namoyon bo'lishi ixtiyoriy artikulyatsion harakatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Nutq-harakat analizatorlarining organik zararlanishi nutq tovushlarining artikulyatsiyasini buzilishiga, ovoz, nafas, nutq tempi va ritmi hamda intonatsiyaning izdan chiqishiga olib keladi. Fonetika-fonematik buzilishlar yetakchi hisoblanadi. Bolalar serebral falajida dizartriyaning o'ziga xosligi nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Bu holat logopedik ishning o'ziga xos tarzda olib borilishini talab etadi.

Logopedik mashg'ulotlar shunday holatda o'tkazilishi kerakki, tonik reflekslar nutq motorikasiga deyarli ta'sir ko'rsatmasin. Bu esa logoped va nevropatolog o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi. Agar bola logopedik mashg'ulot vaqtida o'tirgan holatda bo'lsa, uning bosh harakatlariga alohida e'tibor qaratish zarur: bosh ko'krakka tushib ketmasligi, yon tomonga qiyshaymasligi hamda orqaga ketib qolmasdan o'rta chiziqda turishi lozim. Zarur hollarda bosh maxsus apparatlar yordamida ushlab turiladi. Mashg'ulot davomida oyna va logopedning yuzi bolaning ko'z chizig'ida joylashishi kerak. Bola uchun qulay holat tanlangandan so'ng massaj, undan keyin esa artikulyatsion muskulatura gimnastikasiga o'tiladi. Bolalar serebral falajidagi dizartriyaning

o'ziga xos jihatlari umumiy va nutqiy motorikaning buzilishi, dizartriyaning turli shakllari hamda bolalar serebral falajining muayyan shakllari bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Tayyorlov bosqichida umumiy mushaklarni bo'shashtirish va nutq mushaklaridagi tonusni kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

BSFda artikulyatsion motorikaning buzilishi bola nutqining talaffuz tomonini shakllantirishni qiyinlashtirish bilan bir qatorda fonematik idrokning ikkilamchi buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa so'zning tovush tahlili hamda tovush-bo'g'in tizimining buzilishiga sabab bo'ladi.

Biroq barcha bolalarda ham so'zning tovush tarkibini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bir xil darajada namoyon bo'lavermaydi. Ayrim bolalar so'zni alohida tovush elementlariga bo'lishda yaqqol qiyinchiliklarga duch kelishsa, boshqalari tovush tahlilining oddiy shakllarini qo'llay olishadi. Ko'pincha so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda esa bolalarda tovush tahlilidagi qiyinchiliklar va noto'g'ri talaffuz kuzatilmaligi ham mumkin. Bu holatlar fonetiko-fonematik buzilishlarni bartaraf etishda differensial yondashuvni talab etadi.

Serebral falaj va dizartriya ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar artikulyatsion ko'nikmalarni, fonematik idrok va tahlilni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu bolalarda artikulyatsion malakalar, fonematik eshitish, idrok va tahlil qilishni takomillashtirishga yo'naltirilgan logopedik tadbirlarning kompleks tizimini o'zlashtirishda spetsifik qiyinchiliklar kuzatiladi.

N. N. Malofeyev tomonidan 1985-yilda serebral falajli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning nutqida ot va fe'llarning ishlatilish chastotasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, otlar, fe'llar va old qo'shimchalar ularning umumiy lug'at boyligining 90 % ini tashkil etgan, boshqa so'z turkumlari esa yetarli darajada namoyon bo'lmagan. Bir xil so'zlarni ko'p marotaba takrorlash, fe'llarni to'g'ri qo'llay olmaslik hamda ularning ma'nosini aniq ifodalay olmaslik bolalar uchun xos xususiyatlar sifatida aniqlangan.

Serebral falajli kichik maktab yoshidagi bolalarda leksik-semantik buzilishlar L. B. Xalilova tomonidan 1984-yilda o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalar ko'plab so'zlarning ma'nosini bilmasliklari, bir so'zning ma'nosini talaffuzi o'xshash bo'lgan boshqa so'zning ma'nosi bilan almashtirib yuborishlari, shuningdek, so'z semantikasini sinonim jihatdan yaqin bo'lgan boshqa so'zlarning leksik ma'nolari bilan chalkashtirishlari aniqlangan. Ayrim hollarda esa bolalar so'zning asosiy mazmunini tushunmasdan, faqat uning konkret ma'nosinigina ajratib ko'rsatishlari kuzatilgan.

Bolalar ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi funksional umumiylikni aniqlashda qiynaladilar. Ularda semantik tasavvurlar chegaralangan, til abstraksiyalari va umumlashtirishlar yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Serebral falajli bolalarda leksik xarakterdagi buzilishlar kasallikning o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Harakat buzilishlari va ijtimoiy aloqalarning cheklanganligi sababli bolaning tevarak-atrofga ongli munosabatda bo'lish imkoniyatlari torayadi. Bu holat analizator faoliyatining umumiy rivojlanishida buzilishlar hamda murakkab assotsiatsiyalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Bola predmetlardagi o'xshash va farqli jihatlarni mustaqil ravishda ajrata olmaydi. Faqat amaliy faoliyat jarayonida atrof-muhitni umumiy idrok qilish va fahmlashning asosi bo'lgan murakkab assotsiatsiyalar shakllanishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok va tasavvurlarni rivojlantirish predmet-amaliy, mehnat, tasviriy san'at faoliyatlari hamda o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Shu tariqa, bolalarda lug'atni rivojlantirish va boyitishning asosiy ahamiyati ularda atrofda voqea va hodisalar haqidagi tushuncha hamda tasavvurlarni shakllantirish bilan belgilanadi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning dastlabki bosqichlarida atrofda predmet va hodisalarni hamda ular bilan bajariladigan harakatlarni tushunish, talaffuz qilish, farqli va o'xshash xususiyatlarini anglash, shuningdek, predmetlarda qism va butunlik munosabatlari (inson yuzi va tanasi qismlari, boshqa predmetlarning ayrim qismlari) o'rganish amalga oshiriladi. Ushbu mashg'ulotlarda bolalarning lug'at boyligi rivojlantirilib boriladi. Ularga kundalik hayotda tez-tez uchraydigan predmetlar, jumladan, idishlar, mebellar, kiyim-kechaklar va o'yinchoqlarni tushunish va eslab qolishga o'rgatiladi. Shu bilan birga, bolaning idrok qilish va fahmlash saviyasi hamda tasavvurlari aniqlashib boradi.

Maxsus mashg'ulotlar davomida bolalar o'xshash predmetlarni va ularning asosiy xususiyatlarini farqlashga (masalan, yuk mashinasi va yengil mashina o'rtasidagi farq), shuningdek, predmetlarni maqsadiga ko'ra guruhlashga o'rgatiladi.

Bolalar lug'atini rivojlantirish uchun bolaning amaliy va hissiy tajribasini kengaytirishga qaratilgan dastlabki korreksion tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq predmet-amaliy harakatlarga faol jalb qilinishi zarur. Logoped bolaning onasini bola bilan birgalikda olib boriladigan o'yinlarga jalb etishi lozim. Ushbu jarayonda bolaning nutqi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi.

Lug'atni shakllantirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda bolalar predmetlar, ularning tasviri va ular bilan bajariladigan harakatlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu jarayonda bolaning e'tiborini jalb etish va javob reaksiyasini faollashtirishga yordam beruvchi usullar qo'llaniladi, jumladan, predmetning kutilmaganda paydo bo'lishi yoki yo'qolishi hamda uning harakati.



Bolalar serebral falajida miyaning turli darajadagi zararlanishi va yetilishidagi kamchiliklar bilan bir qatorda disgrafiya va disleksiyaning barcha ma'lum shakllari ham kuzatilishi mumkin. Ushbu mexanizmlarning buzilishida analizatorlarning yetarli darajada faoliyat ko'rsatmasligi muhim rol o'ynaydi. Yozma nutq buzilishlari ko'ruv taassurotlari va tasavvurlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda optik-fazoviy gnozising shakllanmaganligi bilan namoyon bo'ladi. Yozishda o'xshash harflar aralashtirib yuboriladi. Agar buzilishlar ko'ruv tasavvurlarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lsa, ko'chirib yozish saqlanib qoladi. Agar esa buzilishlar optik-fazoviy tasavvurlarning shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'lsa, ko'chirib yozish qiyinchilik bilan kechadi.

Bolalar serebral falajida teskari yozuvning namoyon bo'lishi xarakterli bo'lib, u o'qishning boshlang'ich bosqichlarida kuzatiladi. Ushbu holat o'ng tomon gemiparezida chap qo'lda yozish orqali namoyon bo'ladi. Bolalar o'ngdan chapga qarab yozish va chizishga moyil bo'lib, assimetrik harflarni teskari shaklda ifodalaydilar. Shuningdek, o'xshash grafik elementlarni almashtirib yuborish holatlari kuzatiladi. Ayrim hollarda yozuv jarayonida harf va bo'g'inlar tushirib qoldiriladi, harflar almashtiriladi yoki aralashtirib yuboriladi.

Ushbu o'ziga xos qiyinchiliklar so'zni ko'rib, uni tovush va artikulyatsiya bilan bog'lay olmaslik, ko'ruv-motor koordinatsiyaning shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Bola yozayotgan qo'l harakatini nazorat qila olmasligi so'zlarni qo'shib yozishni qiyinlashtiradi. Natijada so'z va bo'g'inlarni almashtirish, tushirib qoldirish, ayrim hollarda esa bitta so'z yoki bo'g'inni, hatto butun so'zni bir necha marotaba takrorlash holatlari kuzatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bolalar serebral falajida nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda logopedik korrektsiyaning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya tizimidagi o'rnini ilmiy asosda yoritishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, serebral falajga ega bolalarda nutq buzilishlari harakat patologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning patogenezi markaziy nerv tizimidagi erta organik zararlanishlar bilan belgilanadi. Shu bois logopedik korrektsiya jarayoni faqat nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishga emas, balki bolaning umumiy psixomotor rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga ham yo'naltirilishi zarur.

Tahlillar logopedik ishlarni rejalashtirishda individual yondashuv, bosqichma-bosqichlik va mutaxassislararo hamkorlikning muhimligini tasdiqladi. Logoped, nevropatolog, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik korrektsion ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, artikulyatsion motorika, fonematik idrok va lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning tizimli tashkil etilishi bolalarning nutqiy muloqotga kirishish faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, bolalar serebral falajida logopedik korrektsiyaning reabilitatsiyaning dastlabki bosqichlaridan boshlab joriy etish; ikkinchidan, logopedik mashg'ulotlarni tibbiy davolash va pedagogik ta'sir choralari bilan uyg'un holda olib borish; uchinchidan, ota-onalarni korrektsion jarayonga faol jalb etish hamda ularning pedagogik savodxonligini oshirish. Shuningdek, inklyuziv ta'lim sharoitida resurs o'qituvchi va logoped faoliyatini kuchaytirish, zamonaviy diagnostik va korrektsion metodlardan foydalanish bolalarning ijtimoiy moslashuvi va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И. А. Смирнова. Логопедическая диагностика, коррекция и профилактика нарушений речи у дошкольников с ДЦП. – СПб.: Детство-Пресс, 2010-г. – 320 б.
2. М. У. Аюпова. Логопедия. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2007-y.
3. В. Х. Xusniddinova. The Role and Place of the Resource Teacher in Implementing the Goals and Objectives of Inclusive Education. International Journal of Pedagogics (2771-2281), Vol. 05, Issue 11, 2025-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.